



UDK 631.527.541

**O‘ZBEKISTONNING JANUBIY MINTAQA SHAROITIDA NAZORAT  
KO‘CHATZORINING O‘SUV DAVRI DAVOMIYLIGI.**

*Stajiyor tadqiqotchi: Norpo‘latov Fazliddinjon Asqar o‘g‘li.*

[fazliddinnorpolatov@gmail.com](mailto:fazliddinnorpolatov@gmail.com)

*tel: +998946879898*

*Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti.*

**Annatatsiya:** Ushbu maqola O‘zbekistonning janubiy mintaqa sharoitida jahon va mahalliy nav va namunalaridan foydalanilgan holda bug‘doy o‘simligini nazorat ko‘chatzorining o‘suv davri davomiyligini taqqoslash hamda samaradorligi, optimal vaqt haqida so‘z yuritilgan.

**Annotation:** This article discusses the comparison of the duration of the growth period of the wheat plant control nursery using world and local varieties and samples in the conditions of the Southern Region of Uzbekistan, as well as the optimal time of efficiency.

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о сравнении продолжительности вегетационного периода и оптимального времени продуктивности контрольного саженца пшеницы с использованием мировых и местных сортов и образцов в условиях южного региона Узбекистана.

**Kalit so‘zlar:** Yumshoq bug‘doy, o‘suv davri davomiyligi, tizma, andoza, taqqoslash.

**Ключевые слова:** Мягкая пшеница, продолжительность вегетационного периода, гребен, шаблон, сравнение .

**Keywords:** *Soft wheat, growth period duration, Ridge, template, comparison.*

Respublika aholisini don mahsulotlariga bo‘lgan talabini ortib borishi sug‘oriladigan hamda lalmikor maydonlardagi boshqoli don ekinlari maydoni qariyib 1,3 mln. gektarga yetishiga olib keldi. Bu borada Qashqadaryo viloyatida ham ko‘plab samarali ishlar amalga oshirildi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosini g‘allachilik tashkil etadi. Aholining oziq-ovqat, chorva mollari - ozuqa, sanoat - xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan hajmlarda



donning yetarli zaxiralari mavjudligi davlat mustaqilligini belgilaydi. Kuzgi bug‘doy yetishtirishda asosiy e‘tibor umumiy hosildorlik salohiyatini va don sifatini oshirishga qaratilgan. Seleksiya ishlarining asosiy maqsadi va mezonlari doimiy ravishda yuqori mahsuldor navlarni yaratishdir.

Bug‘doyning (*Triticum aestivum* L.) jahon kolleksiya nav va namunalari o‘rganish, ularni mahalliyashtirish bilan bir qatorda sintitek seleksiya asosida olingan mahalliy duragay ashyolar, tizmalarni har tomonlama o‘rganish, andoza navlardan yuqori ko‘rsatkichga ega tizmalarni nav sinovlariga o‘tkazish va ishlab chiqarishga joriy qilish ham seleksiya yo‘nalishining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. (Dilmurodov Sh. D., Jabarov F. O. 2019.).

Rajaram S., Borlaug N. E., Van Ginkel M. kuzatuvlariga ko‘ra, 1950 – 2002 yillar oralig‘ida yumshoq bug‘doy yetishtirish dasturi doirasida 200 mingdan ortiq duragaylash ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu duragay avlodlardan 10 ming dan ortiq tizmalar yer yuzining turli iqlim sharoitlarida sinab ko‘rilishi natijasida 500 dan ortiq yangi yumshoq bug‘doy navlari yaratilgan hamda 40 million gektardan ortiq maydonga joriy qilingan. ( Rajaram S., Borlaug N. E., Van Ginkel M. 1950-2002.)

O‘simlikning o‘suv davri g‘alla ekinlarida, odatda, 2 davrga bo‘linadi: unib chiqish-boshoqlash va boshoqlash-pishish. Unib chiqish–boshoqlash davrining davomiyligi navning asosan ko‘p miqdorda biologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, tashqi muhit iqlim–sharoiti kichik darajada ahamiyatga ega, boshoqlash-pishish davrida esa tashqi muhit iqlim–sharoiti sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi (Alenin.P.G. 2012 y)

### **Nav va tizmalarning o‘suv davri davomiyligi (Qarshi 2023-2024)**



1	<b>G'ozg'on (check)</b>	22.o kt	16.no y	19.ya n	09.ap r	170	30.m ay	221	111
2	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-35	23.o kt	17.no y	19.fe v	19.ap r	179	31.m ay	221	105
3	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-63	23.o kt	17.no y	15.ya n	07.ap r	167	29.m ay	219	111
4	KR22-BWF5IR- 244	22.o kt	15.no y	19.fe v	15.ap r	176	31.m ay	222	131
5	KR22-BWF5IR- 1052	23.o kt	18.no y	21.fe v	20.ap r	180	06.iy un	227	120
6	<b>Alikseich (check)</b>	22.o kt	16.no y	23.fe v	21.ap r	182	05.iy un	227	109
7	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-41	22.o kt	17.no y	15.ya n	10.ap r	171	31.m ay	222	127
8	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-74	22.o kt	18.no y	27.fe v	20.ap r	181	01.iy un	223	120
9	KR22-BWF5IR- 496	23.o kt	18.no y	17.ya n	12.ap r	172	31.m ay	221	100
10	KR22-BWF5IR- 1227	23.o kt	18.no y	19.fe v	18.ap r	178	31.m ay	221	117
11	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-12	22.o kt	16.no y	17.ya n	06.ap r	167	29.m ay	220	107
12	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-52	23.o kt	15.no y	06.fe v	16.ap r	176	29.m ay	219	116
13	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-83	22.o kt	17.no y	28.fe v	21.ap r	182	04.iy un	226	107
14	KR22-BWF5IR- 618	23.o kt	18.no y	18.ya n	07.ap r	167	31.m ay	221	103
15	KR22-BWF5IR-	23.o	15.no	27.fe	23.ap	183	30.m	220	132



5	1228	kt	y	v	r		ay		
1 6	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-13	23.o kt	15.no y	06.fe v	10.ap r	170	30.m ay	220	110
1 7	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-53	22.o kt	17.no y	16.ya n	08.ap r	169	29.m ay	220	110
1 8	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-94	22.o kt	18.no y	19.fe v	09.ap r	170	27.m ay	218	102
1 9	KR22-BWF5IR- 747	23.o kt	16.no y	18.ya n	15.ap r	175	31.m ay	221	109
2 0	KR22-BWF5IR- 1382	22.o kt	16.no y	19.ya n	10.ap r	171	01.iy un	223	114
2 1	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-15	23.o kt	17.no y	20.fe v	22.ap r	182	31.m ay	221	123
2 2	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-54	23.o kt	18.no y	19.ya n	14.ap r	174	28.m ay	218	104
2 3	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-95	22.o kt	15.no y	18.ya n	16.ap r	177	29.m ay	220	111
2 4	KR22-BWF5IR- 756	23.o kt	16.no y	23.fe v	12.ap r	172	30.m ay	220	106
2 5	KR22-BWF5IR- 1407	22.o kt	18.no y	17.ya n	23.ap r	184	30.m ay	221	103
2 6	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-20	22.o kt	17.no y	28.fe v	16.ap r	177	30.m ay	221	117
2 7	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-56	23.o kt	15.no y	08.fe v	09.ap r	169	31.m ay	221	96
2 8	KR22-BWYT- Sel29FAWIR-96	22.o kt	16.no y	21.fe v	10.ap r	171	29.m ay	220	89
2 9	KR22-BWF5IR- 991	22.o kt	18.no y	17.ya n	05.ap r	166	31.m ay	222	89



3 0	KR22-BWF5IR- 2556	22.o kt	18.no y	19.ya n	08.ap r	169	31.m ay	222	108
--------	----------------------	------------	------------	------------	------------	-----	------------	-----	-----

**Tadqiqot natijalari:** Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining dala tajriba maydonida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra kuzgi bug‘doy nav va tizmalarida andoza (Go‘zg‘on, Alekseich) navlarga nisbatan unib chiqqan tizmalar KR22-BWF5IR-244, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-41, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-74, tizmalar, andoza navlari bilan 22-oktyabrdan, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-35, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-63, KR22-BWF5IR-496, tizmalar andozadan 1 kun kech unib chiqishni boshladi.

**Tuplash davri:** KR22-BWF5IR-244, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-52, KR22-BWF5IR-1228, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-13, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-95, tizmalari andozalardan 1 kun oldin tuplashni boshladi. KR22-BWF5IR-1052, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-74, KR22-BWF5IR-496, KR22-BWF5IR-1227, KR22-BWF5IR-618, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-94, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-54, KR22-BWF5IR-2556, tizmalar andozadan 2 kundan keyin tuplashni boshladi.

**Naychalanish sanasi:** KR22-BWYT-Sel29FAWIR-63, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-41, tizmalari G‘ozg‘on andoza navidan 4 kun oldin Alekseich andoza navidan esa 39 kun oldin naychalashni boshladi. KR22-BWYT-Sel29FAWIR-83, KR22-BWYT-Sel29FAWIR-20, tizmalar G‘ozg‘on andoza navidan 40 kundan keyin, Alekseich andoza navidan 5 kun kech naychalashni boshladi.

**Boshqoqlash sanasi:** KR22-BWYT-Sel29FAWIR-12, tizmasi G‘ozg‘on andoza navidan 3 kun oldin, Alekseich andoza navidan 15 kun oldin boshqoqlashni boshlandi. KR22-BWF5IR-1228, KR22-BWF5IR-1407, tizmalari esa G‘ozg‘on andoza navidan 14 kun, Alekseich andoza navidan 2 kun kech boshqoqlashni boshladi.

**To‘liq pishish sanasi:** KR22-BWYT-Sel29FAWIR-94, tizmasi G‘ozg‘on andoza navidan 3 kun oldin Alekseich andoza navidan 9 kun oldin pishib yetiladi. KR22-BWF5IR-1052, tizmasi G‘ozg‘on andoza navidan 7 kun, Alekseich andoza navidan 1 kun kech to‘liq pishib yetildi.



*Vegitatsiya davri*:KR22-BWYT-Sel29FAWIR-94, Tizmasida 218 kun G'ozg'on andoza navidan 3 kun, Alekseich andoza navidan 9 kun qisqa davom etdi. KR22-BWF5IR-1052, tizmasi 227 kun G'ozg'on andoza navidan 6 kun ko'p davom etdi, Alekseich andoza navi bilan esa vegetatsiya davri bir xil kechdi.

*O'simlikning bo'yi*:KR22-BWF5IR-1228, Tizmasi 132 sm eng uzuni bo'lib, G'ozg'on andoza navidan 21 sm uzun, Alekseich andoza navidan 23 sm uzun. KR22-BWYT-Sel29FAWIR-96, KR22-BWF5IR-991, 89 sm bo'yi pastligi bilan G'ozg'on andoza navidan 22 sm, Alekseich andoza navidan 20 sm kalta.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki andoza va tizmalar bir muddatda ekilgani bilan ular orasidagi o'zgarishlar farqi sezilarli darajada. Bu o'zgarishlar tizmalar orasida yuqoriroq, sababi tizmalarning kelib chiqish ajdodlariga ham bog'liqdir. Bu tizmalarni iqlim sharoitiga moslashtirish, mahalliyashtirish muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligining muhim qismi bo'lgan oziq ovqat zahirasi katta ahamiyat kasb etadi. Sifatli, hosildorligi yuqori, suvsizlikka chidamli, iqlim sharoitiga mos, sho'rgachidamli bug'doy navlarini yaratish muhim hisoblanadi. Jahon navlarini O'zbekistonning hududlari kesimida mahalliyashtirish, jahon navlarini mahalliy navlar bilan duragaylash, ulardan yuqori hosil olish don sifat ko'rsatgichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra nav va tizmalar orasida KR22-BWYT-Sel29FAWIR-94 tizma vegetatsiya davri eng qisqa 218 kunni tashkil etdi. Andoza G'ozg'on navidan 3 kun, Alikseich andoza navidan 9 kun erta pishganligi aniqlandi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Dilmurodov Sh. D., Jabarov F. O. Селекция высокоурожайных линий озимой твердой пшеницы с высоким качеством зерна [Selection of high-yielding winter durum wheat lines with high grain quality]. Molodoy ucheniyy, Russia, 2019, no. 31. pp. 34-38.

2. Rajaram S., Borlaug N. E., Van Ginkel M. CIMMYT international wheat breeding. Bread wheat improvement and production. FAO, Rim, 2002, pp. 103-117.

3. Alenin, P. G. Production potential of cereals, legumes, forage and medicinal crops and improvement of technology of their cultivation in the forest-steppe of the Middle Volga region: monograph / P.G. Alenin, A. N. Kshnikatkina. - Penza, 2012. - 265 p.